<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati .	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzrukhoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugapporovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzrukhoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA PROFESSIONAL KUYISH SINDROMINING OLDINI OLISH

Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining paydo bo'lish mexanizmlari, kelib chiqish omillari, uning psixologik va ijtimoiy oqibatlarini hamda oldini olishning innovatsion strategiyalari, ayniqsa uning yashirin (latent) shakllari chuqur tahlil qilinadi. Professional kuyish sindromi (PKS) – uzoq muddatli stress natijasida yuzaga keladigan psixofiziologik va xulq-atvor buzilishi bo'lib, harbiy xizmatchilar uchun jiddiy xavf hisoblanadi. Jadallashgan harbiy xizmat sharoitlari, doimiy xavf ostida bo'lish, rasmiy qat'iylik va shaxsiy hayot chegaralarining buzilishi PKSning rivojlanishiga olib keladi. Maqolada PKSning mexanizmlari, tashxis mezonlari, profilaktika strategiyalari, shaxsiy va tizimli darajadagi choralar hamda ilg'or monitoring yondashuvlari tahlil qilinadi. Professional kuyishning intizom buzilishi sifatida noto'g'ri talqin qilinishi muammosi asoslab beriladi va harbiy muhitga mos innovatsion profilaktika strategiyalari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: professional kuyish, harbiy psixologiya, stress, latent burnout, profilaktika, harbiy xizmatchilar, psixologik moslashuv, profilaktika strategiyalari, ruhiy salomatlik.

Abstract: This scientific article provides an in-depth analysis of the mechanisms underlying the development of professional burnout syndrome among military personnel, its contributing factors, psychological and social consequences, as well as innovative prevention strategies, with particular emphasis on its hidden (latent) forms. Professional burnout syndrome (PBS) is a psychophysiological and behavioral disorder resulting from prolonged exposure to stress and poses a serious risk to military personnel. Intensified conditions of military service, constant exposure to potential danger, strict organizational regulation, and the disruption of boundaries between professional and personal life contribute to the development of PBS. The article examines the mechanisms of PBS, diagnostic criteria, prevention strategies, individual- and system-level interventions, and advanced monitoring approaches. Special attention is given to the problem of misinterpreting professional burnout as disciplinary misconduct, and innovative prevention strategies adapted to the military environment are proposed.

Key words: professional burnout, military psychology, stress, latent burnout, prevention, military personnel, psychological adaptation, preventive strategies, mental health.

Аннотация: В данной научной статье глубоко анализируются механизмы формирования синдрома профессионального выгорания у военнослужащих, факторы его возникновения, психологические и социальные последствия, а также инновационные стратегии профилактики с особым акцентом на его скрытые (латентные) формы. Синдром профессионального выгорания (СПВ) представляет собой психофизиологическое и поведенческое расстройство, возникающее в результате длительного воздействия стресса и представляющее серьезную угрозу для военнослужащих. Интенсивные условия военной службы, постоянное пребывание в состоянии потенциальной опасности, строгая регламентация деятельности и нарушение границ между служебной и личной жизнью способствуют развитию СПВ. В статье рассматриваются механизмы СПВ, диагностические критерии, профилактические стратегии, меры индивидуального и системного уровня, а также современные подходы к мониторингу. Обоснована проблема ошибочной интерпретации профессионального выгорания как дисциплинарного нарушения, а также предложены инновационные профилактические стратегии, адаптированные к условиям военной среды.

Ключевые слова: профессиональное выгорание, военная психология, стресс, латентное выгорание, профилактика, военнослужащие, психологическая адаптация, профилактические стратегии, психическое здоровье.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mamlakat xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlovchi strategik institutlardan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar faoliyati davlat tomonidan qat'iy tartibga solinib, xizmat jarayoni "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari" asosida amalga oshiriladi.



Mazkur nizomlarda harbiy xizmatchining asosiy burchi – Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, buyruqlarni soʻzsiz bajarish hamda har qanday sharoitda xizmat vazifalariga tayyor turish kabi talablar belgilangan ^[1].

Harbiy xizmat yuqori darajadagi mas'uliyat va intensiv stress bilan bogʻliq boʻlib, uzoq muddatli psixologik yuklama professional kuyish sindromining yuzaga kelishiga olib keladi. Harbiy xizmatchilar faoliyati oʻziga xos psixofiziologik yuklamalar bilan ajralib turadi hamda doimiy yuqori stress, xavf va mas'uliyat sharoitida amalga oshiriladi, bu esa shaxsning psixologik resurslariga kuchli bosim oʻtkazadi.

Uzoq muddat davom etuvchi psixologik zoʻriqish natijasida harbiy xizmatchilarda professional kuyish sindromi (PKS) shakllanishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda PKS emotsional charchoq, depersonalizatsiya hamda shaxsiy samaradorlik hissining pasayishi bilan tavsiflanadi ^[2].

Harbiy xizmatchilar uzoq muddatli stress, hayot uchun xavf hamda mashaqqatli jismoniy va ruhiy sharoitlarda xizmat qiladilar, bu esa doimiy xavf va qatʼiy intizom bilan tavsiflanadi. Ushbu omillar uzoq vaqt davomida taʼsir etganda, harbiy xizmatchilarda professional kuyish sindromining shakllanishiga olib keladi. Natijada PKS rivojlanib, bu holat xizmatchilarning salomatligi, xizmat samaradorligi hamda boʻlinma va jamoaning umumiy operativ qobiliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. PKSni erta aniqlash va samarali oldini olish harbiy sogʻliqni saqlash tizimi uchun eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Aksariyat hollarda professional kuyish ochiq namoyon boʻlmaydi, balki yashirin (latent) koʻrinishda rivojlanadi. Harbiy muhitning oʻziga xos jihati shundan iboratki, xizmatchilar oʻz hissiyotlarini ochiq ifodalash imkoniyatiga ega emaslar. Qatʼiy intizom, buyruqbozlik va ierarxik bosim emotsional bostirish mexanizmlarini kuchaytiradi. Tadqiqotlarga koʻra, aynan emotsional bostirish professional kuyish sindromining yashirin (latent) shaklda rivojlanishiga olib keluvchi asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi ^[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy gʻoyasi shundan iboratki, harbiy xizmatchilarda professional kuyish sindromi faqat individual psixologik holat sifatida emas, balki yuqori stressli xizmat muhiti va ierarxik tizim sharoitida shakllanuvchi tizimli psixologik xavf sifatida namoyon boʻladi. Harbiy xizmatning qatʼiy intizomga asoslangan ijtimoiy-psixologik muhiti shaxsning emotsional resurslarini tezda kamaytirib, stressga moslashuv mexanizmlarini zaiflashtiradi.

Oʻzbekiston psixologiya ilmidagi stressning shaxs faoliyatiga taʼsiri masalasi dolzarb yoʻnalishlardan biri boʻlib, professor Gʻ. B. Shoumarov taʼkidlaganidek, uzoq davom etuvchi zoʻriqish kasbiy samaradorlikning pasayishiga olib keladi ^[4]. Ushbu ilmiy yondashuv harbiy muhitda professional kuyish sindromining shakllanishini tushuntirish uchun metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Shuningdek, Hobfollning resurslarni saqlash nazariyasiga koʻra, shaxs oʻzining psixologik va ijtimoiy resurslarini yoʻqota boshlaganda stress kuchayadi hamda kuyish xavfi ortadi ^[5]. Harbiy sharoitda resurslarning tiklanish imkoniyatlari cheklanganligi sababli professional kuyish jarayoni tezlashadi va emotsional charchoq holati kuchayadi. Demak, professional kuyish sindromi harbiy xizmatchilarda nafaqat shaxsiy moslashuv muammosi, balki xizmat tizimining psixologik bosimi, emotsional bostirish madaniyati va ierarxik talablar bilan bogʻliq murakkab psixologik fenomen sifatida namoyon boʻladi. Shu bois, mazkur muammoni bartaraf etishda individual yondashuv bilan bir qatorda harbiy tashkilot doirasida psixologik profilaktika va resurslarni qoʻllab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Harbiy xizmat – shaxsdan yuqori darajadagi jismoniy, intellektual va ruhiy tayyorgarlikni talab qiluvchi, qatʼiy reglamentlangan kasbiy faoliyat turidir. Ushbu xizmat turi doimiy xavf, mas'uliyat, vaqt bosimi va buyruq-ierarxik boshqaruv sharoitida amalga oshiriladi. Shu sababli harbiy xizmat psixologik jihatdan murakkab va yuqori stressli faoliyatlar qatoriga kiradi.

Harbiy xizmatning asosiy psixologik oʻziga xosligi – shaxsiy ehtiyojlar va hissiyotlarning xizmat manfaatlariga boʻysundirilishidir. Harbiy xizmatchidan vaziyatdan qatʼi nazar, oʻz emotsiyalarini nazorat qilish, buyruqlarni soʻzsiz bajarish va ekstremal sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish talab etiladi. Bu esa uzoq muddat davomida psixologik zoʻriqishning toʻplanishiga olib keladi. Harbiy xizmatga xos stress omillari quyidagilardan iborat:

- hayot uchun doimiy xavf ehtimoli;
- yuqori javobgarlik va xatoga yoʻl qoʻymaslik talabi;
- qatʼiy intizom va ierarxik bosim;
- oila va ijtimoiy muhitdan uzoqlashish.



1-jadval: Harbiy xizmatchilarda professional kuyishning asosiy xavf omillari

Xavf omili:	Tavsifi:	Psixologik oqibat:
Doimiy stress	Xavf va mas'uliyatning uzluksizligi	Emotsional charchoq
Ierarxik bosim	Qat'iy buyruqbozlik muhiti	Latent kuyish
Emotsional bostirish	Hissiyotlarni ochiq ifodalamaslik	Ichki zo'riqish
Ijtimoiy ajralish	Oila va jamoadan uzoqlik	Motivatsiya pasayishi

Mazkur omillar ta'sirida harbiy xizmatchilarda stressga moslashuv mexanizmlari faol ishlay boshlaydi. Harbiy xizmat sharoitida ushbu resurslarning tiklanishi cheklangan bo'lib, bu holat professional kuyish sindromi (PKS) rivojlanishini tezlashtiradi. Shuningdek, individual psixologik xususiyatlar – perfekcionizm, yuqori javobgarlik hissi va hissiy intellektning yetarli darajada rivojlanmaganligi professional kuyish xavfini oshiruvchi omillar sifatida qayd etiladi. Tadqiqotchilar fikricha, ushbu omillar mavjud bo'lgan harbiy xizmatchilar stressga nisbatan sezgirroq bo'lib, emotsional charchoqqa tezroq duch keladilar [6]. Biroq mazkur moslashuv mexanizmlari uzoq muddat davomida samarali bo'la olmaydi, natijada psixologik resurslar asta-sekin kamayib, professional kuyish sindromi rivojlanish xavfi ortadi.

Ahamiyatli jihati shundaki, harbiy xizmat sharoitida yuzaga keladigan professional kuyish ko'pincha ochiq emotsional charchoq tarzida emas, balki motivatsiyaning pasayishi, befarqlik, sovuqqonlik va ichki norozilik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu holatlar ko'p hollarda intizom buzilishi yoki xizmatga loqaydlik sifatida noto'g'ri talqin qilinadi. Shu sababli harbiy xizmat doirasida professional kuyish sindromining oldini olish faqat individual psixologik yordam bilan cheklanmasdan, balki xizmatni tashkil etish tizimi, rahbarlik uslubi hamda psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kompleks tarzda rivojlantirishni talab etadi. Professional kuyish sindromi termini birinchi bor 1970-yillarda Greiner va Maslach tomonidan jismoniy hamda emotsional charchoq holatini tavsiflash uchun qo'llanilgan. Maslach Burnout Inventory (MBI) PKSni o'lchashda eng ko'p foydalani-ladigan diagnostik vosita bo'lib, u uchta asosiy komponentni ajratadi. Emotsional charchoq – bu xizmatchining energiyasi va ichki resurslarining kamayishi bo'lib, doimiy ruhiy zo'riqish natijasida yuzaga keladi. Harbiy xizmatchilar uchun emotsional charchoq uzluksiz patrul va mashg'ulotlar tufayli kuchning kamayishi, hatto oddiy vazifalarni bajarishda ham qiyinchilik va qiziqishning yo'qolishi, stressli vaziyatlarda sabrsizlik va asabiylashish bilan namoyon bo'ladi. Masalan, xizmat davomida uzluksiz patrul va kechayu kunduz majburiyatlar bilan band bo'lgan askar hatto dam olish vaqtida ham charchoqni his qiladi va ish faoliyatida pasayish kuzatiladi.

Shaxsiy yutqazish his-tuyg'usi esa xizmatchining o'z ishida samarasiz yoki qadrsiz ekanini his qilishi bilan bog'liq bo'lib, o'zini foydasiz deb bilish, "men qilayotgan ish natija bermayapti" degan fikrlarning kuchayishi, motivatsiyaning pasayishi, qaror qabul qilishdan qo'rquv hamda kasbiy rivojlanishda stagnatsiya bilan tavsiflanadi. Harbiy faoliyat misolida, askar yoki ofitser murakkab operatsiya yoki mashg'ulotlarda faol ishtirok etgan bo'lsa-da, natija yoki e'tirof ko'rmasligi mumkin. Bu holat ularni ruhiy jihatdan charchatib, o'zini samarali his qilish darajasini pasaytiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Depersonalizatsiya yoki mazmun hisining yo'qolishi – bu xizmatchining insoniy aloqalarga befarqligi va ish faoliyatining ma'nosini yo'qotishi bilan namoyon bo'ladigan holatdir. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- hamkasblar va fuqarolarga nisbatan sovuqqonlik;
- vazifa va topshiriqlarning ruhiy mazmunini qadrlamaslik;
- hissiy bog'lanishning kamayishi.

Masalan, xizmatchi topshiriqlarni faqat texnik bajarish sifatida qabul qiladi, yordam so'ragan hamkasb yoki fuqaroga befarq bo'ladi. Shu bilan birga, vazifaning mazmunini anglamasdan, faqat jarayonni bajarishga e'tibor qaratadi.

PKSning biopsixosotsial mexanizmlari – bu doimiy stress va yuqori ish yuklamasi natijasida yuzaga keladigan murakkab psixofiziologik holat bo'lib, uning shakllanishi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri orqali sodir bo'ladi. Ushbu yondashuv biopsixosotsial model deb ataladi [7]. PKSning biologik omil-lari professional charchoq sindromining asosan nerv va gormon tizimlari faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi, chunki aynan ushbu tizimlar organizmning stressga bo'lgan javobini belgilaydi.

Birinchidan, stress gormonlari (kortizol va adrenalin) uzluksiz stress ta'sirida doimiy faollashadi. Gipotalamus–gipofiz–buyrak usti bezlari (HPA) tizimi faollashganda organizm doimiy tetiklanish holatiga o'tadi, bu esa charchoq, uyqu buzilishi va immun tizimining susayishiga olib keladi.



Ikkinchidan, neurotransmitterlar (serotonin va dopamin) darajasining o'zgarishi kayfiyat va motivatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ularning disbalansi motivatsiyaning pasayishi, depressiv kayfiyat va ruhiy charchoq bilan namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, avtonom nerv tizimi faoliyatining buzilishi yurak urishining tezlashuvi, qon bosimining o'zgarishi va stressga sezuvchanlikning oshishiga olib keladi. Bu holat xizmatchining jismoniy chidamliligini pasaytiradi hamda xavfli vaziyatlarda tez charchashga sabab bo'ladi. Shuningdek, immun tizimi ham doimiy stress sharoitida zaiflashadi, bu esa kasalliklarga moyillikni oshiradi va tiklanish jarayonini qiyinlashtiradi.

Oxirgi biologik omil – uyqu va energiya resurslarining kamayishidir. Stress va gormonlar muvozanatining buzilishi uyqu siklini izdan chiqaradi, natijada xizmatchining energiya zaxiralari kamayadi, jismoniy va psixologik charchoq kuchayadi.

Shunday qilib, PKSning biologik omillari organizmning stressga doimiy javobi va fiziologik tizimlardagi o'zgarishlar orqali yuzaga keladi, bu esa harbiy xizmatchilarning ish samaradorligi va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. PKS biologik (organizmning stressga javobi), psixologik (hissiy va kognitiv holat) hamda ijtimoiy (muhit va qo'llab-quvvatlash) omillarning o'zaro ta'siri orqali rivojlanadi. Harbiy xizmatchilarda ushbu mexanizmlar bir-birini kuchaytirib, professional va shaxsiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli stressni boshqarish, ruhiy qo'llab-quvvatlash va jismoniy tiklanish strategiyalari PKSning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarda professional kuyish ko'pincha yashirin shaklda kechadi va intizom buzilishi, motivatsiya yetishmasligi yoki xizmatga loqaydlik sifatida noto'g'ri baholanadi. Harbiy xizmatchilarda PKS faqat individual muammo emas, balki tizimli salomatlik muammosidir. Shu bois PKSni profilaktika qilish uchun ko'p darajali yondashuv zarur. Professional kuyish sindromi (PKS) harbiy xizmatchilarda faqat individual psixologik muammo sifatida ko'rilmaligi lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, PKSning paydo bo'lishi va rivojlanishi shaxsiy xususiyatlar, ish muhiti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir natijasida yuz beradi. Harbiy xizmat doimiy xavf, yuqori intizomiy talablar, uzoq muddatli safarlar va ijtimoiy ajralish bilan tavsiflanadi. Ushbu omillar individual xizmatchi darajasidagi stress va charchoqni kuchaytiradi, biroq ularni kamaytirish uchun faqat psixologik maslahat yoki dam olish yetarli bo'lmaydi. Shu sababli PKSni tizimli salomatlik muammosi sifatida baholash zarur, chunki u nafaqat xodimning ruhiy holatiga, balki jamoaviy ish samaradorligiga, harbiy muhitdagi ierarxik tizimga va strategik qaror qabul qilish jarayonlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

PKSni samarali kamaytirish uchun ko'p darajali yondashuv talab etiladi:

Individual daraja: xizmatchilarda stressni boshqarish texnikalari, emotsional intellektni rivojlantirish va dam olish strategiyalarini qo'llash. Meditatsiya, nafas mashqlari, uyqu tartibini yaxshilash va vaqtni boshqarish PKSning biologik va psixologik omillarini kamaytiradi. Ushbu usullar xizmatchining hissiy chidamliligini oshiradi, emotsional charchoqni pasaytiradi va ruhiy tiklanishni tezlashtiradi. Individual darajada profilaktika PKSni kamaytirishda shaxsiy javobgarlik va o'zini boshqarish rolini kuchaytiradi.

Jamoaviy daraja: hamkasblar va komandirlar o'rtasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish, ish yukini adolatli taqsimlash va ochiq muloqotni rag'batlantirish. Jamoaviy qo'llab-quvvatlash latent professional kuyishning oldini oladi hamda xizmatchilar orasida ijtimoiy bog'lanish, motivatsiya va o'zaro yordamni mustahkamlaydi.

Tashkiliy va tizimli daraja: harbiy tashkilotlar tomonidan ish sharoitini optimallashtirish, ruhiy salomatlik dasturlarini joriy etish va PKSni monitoring qilish tizimini yaratish. Ish yukini nazorat qilish, ta'til va dam olish rejimini tartibga solish, psixologik maslahat xonalari va treninglarni tashkil etish tizimli profilaktikani ta'minlaydi.

Profilaktika mexanizmi: Erta diagnostika → mikro-psixologik intervensiyalar → rahbar empatiyasi → ijtimoiy qo'llab-quvvatlash → ruhiy barqarorlik va xizmat samaradorligi.

XULOSA

Harbiy xizmatchilarda professional kuyish sindromi (PKS) faqat individual psixologik muammo emas, balki tizimli, biopsixosotsial muammo sifatida qaralishi zarur. Konseptual model asosida ishlab chiqilgan profilaktika strategiyalari xizmat samaradorligini oshirish va ruhiy salomatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchilarda PKS – jiddiy va keng tarqalgan psixofiziologik holat bo'lib, uning oldini olish chuqur, tizimli va individual darajada amalga oshirilishi lozim. Ilg'or diagnostika, stressni boshqarish treninglari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va texnologik yechimlar bu jarayonda samarali hisoblanadi. Kelgusida PKS profilaktikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar harbiy psixologiya va sog'liqni saqlash bo'yicha standartlar rivojida muhim rol o'ynaydi. Harbiy xizmatchilarda professional kuyish sindromining oldini olish uchun kompleks va ko'p darajali yondashuv talab etiladi. Konseptual model asosida ishlab chiqilgan profilaktika strategiyalari xizmat samaradorligini oshirish va ruhiy salomatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, PKSni tizimli darajada oldini olish biopsixosotsial yondashuvga asoslangan strategiyalarni talab qiladi. Ushbu yondashuv biologik



(stress va uyqu holati), psixologik (emotsional boshqarish) va ijtimoiy (qo'llab-quvvatlash) omillarni integratsiyalash orqali harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlaydi hamda xizmat samaradorligini oshiradi.

PKSning rivojlanishi biologik stress javobi, psixologik chidamlilik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik natijasidir. Shu sababli, uning oldini olishga qaratilgan profilaktika mexanizmi ham ko'p darajali, integrativ va adaptiv yondashuvni talab qiladi. Erta diagnostika va mikropsixologik intervensiyalar orqali latent professional charchoqni erda aniqlash va bartaraf etish xizmatchining o'z-o'zini anglash hamda emotsional boshqarish qobiliyatlarini oshiradi. Bu bosqich nafaqat stressni kamaytiradi, balki shaxsiy resurslarni barqaror tarzda tiklashga xizmat qiladi. Rahbar empatiyasi va jamoaviy qo'llab-quvvatlash PKSga qarshi ijtimoiy "immunitet" tizimini shakllantiradi.

Empatik rahbar va faol jamoa xodimni qadrlash hamda tushunish orqali latent charchoqning tashqi belgilari paydo bo'lishidan avval uni yumshatadi, motivatsiyani saqlaydi va psixologik xavfsizlikni mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, rahbar va jamoaning roli faqat qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmay, balki PKSni tizimli darajada oldini olish mexanizmi sifatida ham qaraladi. Mazkur yondashuv tashkiliy va institutsional strategiyalar bilan mustahkamlanadi. Ish sharoitini optimallashtirish, ish yuklamasini monitoring qilish, ruhiy salomatlik dasturlarini joriy etish hamda doimiy kuzatuv tizimlarini tashkil etish PKSning tashqi omillarini kamaytiradi, xizmatchilarning barqaror samaradorligini ta'minlaydi va uzoq muddatli strategik maqsadlarga xizmat qiladi.

Yangi yondashuv sifatida PKS profilaktikasini texnologik va analitik vositalar bilan integratsiyalash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, stress monitoringi uchun taqiladigan qurilmalar (soatlar, "biofeedback" texnologiyalari) va mobil ilovalar orqali xodimlarning fiziologik hamda psixologik holatini real vaqt rejimida kuzatish, ma'lumotlarga asoslangan individual va jamoaviy intervensiyalarni qo'llash imkonini beradi. Bu PKSni erda aniqlashga xizmat qilish bilan birga, profilaktik strategiyalarning shaxsga moslashuvchan va dinamik bo'lishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, PKS profilaktikasi harbiy tashkilot madaniyati va qadriyatlari bilan uyg'unlashgan bo'lishi zarur. Xizmatchilar o'z faoliyatini nafaqat majburiyat sifatida, balki ijtimoiy ahamiyat va maqsad bilan anglash orqali ichki motivatsiyani rivojlantiradilar, bu esa charchoq va kuyish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Ko'p darajali profilaktika mexanizmi – individual, jamoaviy va institutsional strategiyalarni integratsiyalash asosida – harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi, xizmat samaradorligi va uzoq muddatli sog'lom psixologik holatini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv PKSni nafaqat oldini olish, balki harbiy xizmat sifati va xavfsizligini oshirishga qaratilgan strategik vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi nashriyoti, 2018.
2. Maslach C., Leiter M. The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. – San Francisco: Jossey-Bass, 1997. – 186 p.
3. Schaufeli W.B. Burnout in organizations // Journal of Organizational Behavior. – 2003. – Vol. 24, No. 1. – P. 1–17.
4. Shoumarov G'.B. Psixologik stress va shaxs faoliyati. – Toshkent: Fan, 2018. – 192 b. [Shoumarov, 2018, 112–114].
5. Hobfoll S.E. Conservation of Resources Theory: Its implication for stress, health, and resilience // Applied Psychology. – 2011. – Vol. 60, No. 2. – P. 221–244.
6. Shirom A. Burnout in Work Organizations // Handbook of Stress and Health. – London: Taylor & Francis, 2005. – P. 245–264.
7. Karimova V.M. Kasbiy stress va professional kuyish muammolari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 160 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.